

**BOJXONA AUDITIDA BOJXONA TO'LOVLARI BO'YICHA IMTIYOZLAR
TO'G'RI QO'LLANILGANLIGI VA UNDAN MAQSADLI FOYDALANGANLIKNI
TEKSHIRISHDAN ASOSIY MAQSAD, QO'YILGAN VAZIFALAR HAMDA IQTISODIY
ZARURATI**

Azizov Sherzod O'ktamovich

*Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti "Bojxona nazorati" kafedrasiga
boshligi, i.f.d., dotsent*

Quchqarova Ug'iloy Bohodir qizi

Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona instituti kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlariga bojxona to'lovlaridan imtiyozlar berishning asosiy sabablari, shuningdek bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlarning to'g'ri qo'llanilganligi va ulardan maqsadli foydalanganlikni audit usullari yordamida tekshirishdan ko'zlangan maqsad, hamda ushbu yo'nalishning iqtisodiy ahamiyati yoritib berilgan

Kalit so'zlar: tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona nazorati, bojxona audit, tashqi iqtisodiy faoliyat, vakolatli shaxslar, xarf darajasi bojxona to'lovlar, bojxona to'lovlaridan imtiyozlar, preferensiyalar.

Аннотация: В данной статье рассмотрены основные причины предоставления льгот по уплате таможенных платежей субъектам внешнеэкономической деятельности, цель проверки правильности использования льгот по уплате таможенных платежей и их целевого использования с помощью методов аудита, а также экономическое значение этого направление выделено.

Ключевые слова: таможенный контроль при вывозе товаров, таможенный аудит, внешнеэкономическая деятельность, уполномоченные лица, уровень риска, таможенные сборы, льготы по уплате таможенных платежей, преференции,

Abstract: In this article, the main reasons for granting exemptions from customs fees to subjects of foreign economic activity, the purpose of checking the correct use of the exemptions from customs fees and their purposeful use with the help of audit methods, and the economic importance of this direction are highlighted. given

Key words: customs control after the export of goods, customs audit, foreign economic activity, authorized persons, level of risk, customs fees, exemptions from customs fees, preferences,

KIRISH

Har bir rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlarning mamlakat iqtisodiyotini yanada barqaror rivojlanishini ta'minlashida, avvalambor, ushbu mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyat salohiyati qay darajada ekanligi eng asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanmoqda.

Iqtisodchi olim J.Saksning fikricha, “...dunyodagi har qanday davlatning iqtisodiy muvaffaqiyati tashqi savdoda ko'rindi. Hozirgi kunga qadar hech bir mamlakat jahon iqtisodiy tizimidan ajralgan holda sog'lom iqtisodiyotni hosil qila olgani yo'q”.

Tarif imtiyozlari va tarif preferensiyalari tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositalari sifatida namoyon bo'lib, dastlab, “tarif preferensiyalari” va “tarif imtiyozlari” bir xil ma'no kashf etar edi. Ammo, xalqaro savdo jarayonlari rivojlanishi natijasida bu ikki tushuncha tashqi savdo siyosatida turli xil ma'no-mazmun kasb eta boshladi.

Bojaxona nuqtai nazaridan ushbu “tarif imtiyozi” va “tarif preferensiyasi” tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur. Xalqaro savdodagi tarif preferensiyalari deganda bojaxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarning kelib chiqishi mamlakatiga qarab qo'llaniladigan hamda barcha tovarlar yoki ularning alohida turlariga nisbatan belgilanadigan import va eksport bojaxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar tushuniladi.⁶

Bojaxona tarif imtiyozlari bojaxona huquqi institutlaridan biri va bojaxona imtiyozlari murakkab tizimining bir qismidir. Imtiyoz tushunchasi slavyancha "lga", "legota" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, “uning ostida bir tomondan, yengillik, qulaylik” va boshqa tomondan –“maxsus huquqlarga ega bo'ish, boshqalar ustidan hukmronlik qilish” degan ma'noni anglatadi.⁷

Mamlakatimizda bu borada keng ko'lami tizimli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda, xususan, bojaxona taomillari soddallashtirilib, amaldagi tartiblar yengillashtirilishi bilan birga, tadbirkorlik sub'ektlariga bojaxona to'lovlaridan turli imtiyozlar berilib, soha yo'nalishida qo'shimcha imkoniyatlar yaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv, integratsion jarayonlarning kuchayishi, transmilliy korporatsiyalarning rivojlanishi hamda tashqi savdoning jadallahuvinda bojaxona audit muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotda bojaxona auditini tashkil etish va o'tkazish mexanizmlarini takomillashtirish, xalqaro standartlarini ishlab chiqish, bojaxona audit jarayonini yanada rivojlantirish bo'yicha ko'plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tadqiqotlar natijasida bojaxona auditining eksport-import tartib-taomillari, soliq va boj to'lovchilar qonunga itoatkorligiga ta'siri aniqlangan hamda uning Davlat budgeti daromad qismining oshishiga olib kelishi va bojaxona organlari xarajatlarini qisqartirishi asoslangan. Shuningdek, bojaxona audit samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Keyingi vaqtarda jahonda qabul qilingan xalqaro norma va standartlarga muvofiq, bojaxona auditidan keng foydalanilmoqda va yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Hozirgi kunda bojaxona audit zamонавиъи bojaxonaning

⁶ K.A. Tarankova “Rossiyaga import qilinadigan imtiyozli tovarlarni nazorat qilish mexanizmlari”

⁷ Savchenko A.G, Lavrikova N.YU “Davlat tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish tizimida bojaxona imtiyozlari”

https://www.elibrary.ru/download/elibrary_43100616_55531136.pdf

ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib ulgurdi. Ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribalarini o‘rganadigan bo‘lsak, bojxona organlari bevosita bojxona auditini o‘tkazishga mas’ul etib belgilangan.

Bojxona audit tushunchasi turli mamlakatlarda turlicha so‘zlar bilan atalsada, ma’no jihatdan deyarli farq qilmaydi. Misol uchun Kanadada “Post-Release Verification”, YOIIda “Bojxona tekshiruvi”, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Singapur, Yevropa Ittifoqi va Jahon bojxona tashkilotida “Post-Clearance Audit” atamalari bilan ataladi. Bojxona audit tushunchasiga izoh beradigan bo‘lsak, uning turli mutaxassislar tomonidan o‘ziga xos talqinlari uchraydi.

Jumladan, Luneva Ye.P. (2003) fikriga ko‘ra: “Bojxona auditi – bojxona rasmiylashtiruvi yakunlangandan so‘ng, qonunchilik va xalqaro shartnomalarga riosa qilinishini ta’minalash maqsadida, bojxona organlari tomonidan, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari, bojxona chegarasi orqali harakatlangan tovar va transport vositalariga bevosita va bilvosita aloqador xo‘jalik subyektlari faoliyatini tekshiruvdan o‘tkazish asosida amalga oshiriladigan o‘zaro bog‘liq, kompleks chora-tadbirlarni qamrab oladi”³ .

Rossiya Federatsiyasining bojxona auditorlari va maslahatchilari uyushmasi bosh direktori Mariya Serebrovanning so‘zlariga ko‘ra, bojxona auditining asosiy vazifasi bojxona organlari va tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari o‘rtasida shaffof va ishonchli munosabatlarni o‘rnatishdan iborat va bojxona tekshiruvi bojxona qonunchiligi buzilishining asosiy sabablarini yo‘q qiladi. Ko‘pincha, bunday qoidabuzarliklar ataylab emas, balki qonunni noto‘g‘ri tushunish yoki uni mustaqil ravishda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasi orqali vujudga keladi⁴.

A.A.Berzanning fikricha, “Bojxona auditi – bojxona organlari tomonidan amalgalash oshiriladigan, bojxona chegarasini kesib o‘tgan tovarlarga nisbatan, qonunchilikka riosa qilinishini ta’minalash maqsadida, tashkilotning moliyaviy faoliyatini baholash bo‘yicha o‘zaro bog‘liq , kompleks chora-tadbirlar majmuidir”⁵ .

O.Ye.Kudryavsev,V.V.Solovev, I.V.Solovevalarning fikricha, “Bojxona auditi – bojxona nazoratining shakli bo‘lib, tovarning bojxona rasmiylashtiruvida e’lon qilingan ma’lumotlarning qonunchilikka muvofiqlik darajasini aniqlash maqsadida, ularni yig‘ish va baholashning tizimli jarayonini ifodalaydi”⁶ .

Milliy qonunchilikka nazar tashlaydigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 25 fevraldaggi “Bojxona auditini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi

3. Лунева Е.П. Методические и организационные основы таможенного аудита экспортно-импортных операций участников внешнеэкономической деятельности: Монография / Под общей редакцией докт. экон. наук, профессора Л.А. Поповой. — М.:

⁴ РИО РТА, 2003.-с.7Сереброва М. Нужно строить мосты, а не стены URL:
<https://ataik.ru/news/mosti-tamogenniy-audit> (дата обращения: 03.11.2019)

⁵ Берзан А. А. Таможенный аудит в системе государственного контроля // Вестник транспорта. — 2006. — № 6. — С. 43

⁶ Выбор объектов таможенного аудита с использованием системы анализа и управления рисками: Пособие / Кудрявцев О. Е., Соловьев В. В., Соловьева И. В. — Ростов-н/Д: РИО Ростовского филиала РТА, 2005. – С.97

nizomni tasdiqlash haqida” 101-son Qarorida “Bojxona audit — tovarlarni chiqarishga ruxsat berilgandan so‘ng bojxona to‘g‘risidagi qonunchilik hujjalariiga rioya etilganligini vakolatli shaxslar tomonidan bojxona rasmiylashtiruvni jarayonida taqdim etilgan hujjalarni moliya-xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq hujjalarda aks ettirilgan ma’lumotlar bilan solishtirgan holda o‘rganish va tekshirishga asoslangan bojxona nazorati shakli” deb ta’riflangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, O‘zbekiston Respublikasi bojxona xizmati organlari faoliyatida inson omilini kerakli darajada kamaytirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda bojxona organlari faoliyatini yanada modernizatsiya qilish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlariga tovarlar eksporti va importida yengilliklar yaratish maqsadida ko‘plab rivojlangan davlatlar bojxona tizimlarinig ilg‘or tajribalari atroflicha o‘rganilib, milliy bojxona tizimimizga ularni tadbiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalgalashtirilmoqda. Jumladan, bojxona tizimida xavflarni boshqarish va audit usullariga asoslangan rasmiylashtiruvdan keyingi bojxona nazorati tashkil etildi, bojxona taomillari soddalashtirilib, amaldagi tartiblar yengillashtirilishi bilan birga, tadbirkorlik sub'ektlariga bojxona to‘lovlaridan turli imtiyozlar berilib, soha yo‘nalishida qo‘sishma imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bojxona to‘lovlaridan imtiyozlar berishdan maqsad:

- ❖ Yangi ishlab chiqarish obyektlarini barpo etish;
- ❖ Importni o‘rnini bosuvchi va eksportbop tovarlar ishlab chiqarilishini qo’llab quvvatlash;
- ❖ Korxonalarni modernizatsiyash;
- ❖ Ishlab chiqarish uchun xom ashyo va materiallar xarid qilish;
- ❖ Kiritilgan investitsiyalarni qoplash;
- ❖ Ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan qayta jixozlash;
- ❖ Ishlab chiqarishni rivojlantirish.



1-Rasm. Bojxona to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha imtiyozlar tizimi

O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksiga binoan tashqi savdo siyosatida tarif imtiyozlari quyidagi ko'rinishlarda berilishiga yo'l qo'yiladi:⁷

- ❖ ilgari to'langan bojxona bojini qaytarish,
- ❖ bojxona boji stavkasini pasaytirish,
- ❖ bojxona bojini to'lashdan ozod etish

O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksiga binoan tashqi savdo siyosatida tarif preferensiyalari quyidagi ko'rinishlarda berilishiga yo'l qo'yiladi:⁸

- bojxona bojlarini to'lashdan ozod etish,
- ❖ bojxona bojlari stavkalarini kamaytirish
- ❖ muayyan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarni bojxona hududiga preferensial olib kirish yoki ushbu hududdan preferensial olib chiqishda kvotalar belgilash tarzida beriladi.

Tarif preferensiyalari tizimining maqsadi - rivojlanayotgan mamlakatlarga eksportdan tushadigan daromadlarini oshirish va shunga mos ravishda ushbu davlatlarning farovonligini oshirish, iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida rivojlangan mamlakatlar bozorlariga chiqish uchun qulayroq (afzal) shart-sharoitlarni ta'minlashdan iborat.

Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak tarif imtiyozlari tovarlarga va korxonalarga berilib, individual xarakterga ega bo'ladi. Tarif preferensiyalari tovarning kelib chiqish mamlakatini tasdiqlovchi sertifikat asosida muayyan davlatlardan kelib chiqqan tovarlarni bojxona hududiga imtiyozli olib kirish yo'li orqali qo'llaniladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksida qo'shilgan qiymat soilih'i va aksiz solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozlar berilishi nazarda tutilgan.

Tashqi savdoni yanada erkinlashtirish, mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, chet el investitsiyalarini faol jalb qilish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta'minlash hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning barcha toifalari uchun teng raqobat sharoitlariga ega bo'lgan yagona iqtisodiy maklonni shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, bojxona tartib-taomillari soddalashtirilib, amaldagi tartiblar yengillashtirlishi bilan birga, tadbirkorlik subyektlariga bojxona to'lovlaridan turli imtiyozlar berilib, soha yo'nalishida qo'shimcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga⁹ ko'ra davlatning nazorat qiluvchi tuzilmalari tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ustuvorligini ta'minlashi huquqbazarliklarini oldini olish (profilaktikasi) bilan shug'ullanishlari kerakligi, bu yo'nalishga noqonuniy aralashgan, to'sqinlik qilgan hamda imtiyoz berishni asossiz to'xtatib qo'yan mansabdar


⁷ Bojxona kodeksi 297-modda

⁸ Bojxona kodeksi 300-modda

⁹O'zb. Res. Prezidentining 05.10.2016-yildagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 4848-soni Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3039311>


shaxslarga javobgarlikni belgilash, yetkazilgan zararni aybdordan undirish belgilab qo'yildi. Mazkur qarorga asosan 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab rejadan tashqari tekshirishlarning hamda muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinishi o'z navbatida bojxona organlarining tashqi iqtisosdiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini bojxona rasmiylashtiruvidan keyingi bojxona nazorati, jumladan, imtiyozlarning to'g'ri qo'llanilganligi va ulardan maqsadli foydalanganlikni nazorat qilish mexanizmining sodda va samarali usullarini joriy etishni talab qiladi.

Davlat budgetining daromadlar qismida bojxona to'lovlari munosib o'ringa ega. Jumladan bojxona to'lovlari davlat budgeti daromadlarining Yevropa ittifoqida 13-15 %, Rossiya Federatsiyasida 28-33 %ni tashkil etayotgan bo'lsa mamlakatimizda 2018-yil davlat budgetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlarining umumiyligi summasi 11,5 trln. So'mni va 2022-yilda esa 46 trln. So'mni tashkil etib, oxirgi 4 yilda bojxona to'lovlaridan tushum 4 barobarga oshgan holda davlat budgeti daromadlar qismidagi ulushi 14,5 % dan 22,7 % ga yetgani bu yo'nalishning ahamiyati ortib borayotganligini bildiradi.



2-rasm. Bojxona to'lovlarining davlat budgeti daromadlaridagi ulushi (foizda)

Tashqi iqtisodiy faoliyatni bojxona to'lovlari bilan tartibga solishda, tashqi savdoni samarali tarkibini ta'minlash, ichki ishlab chiqaruvchilarni chet elning nosog'lom raqobatidan himoya qilish, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish maqsadida tovarlarga qo'llaniladigan bojxona to'lovlari va ularning stavkalari hamda bojxona to'lovlaridan beriladigan imtiyoz va preferensiyalar tushuniladi.



3-rasm. 2018-2022-yillarda undirilgan bojxona to'lovlari va bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlar (trln so'mda)

Tadbirkorlik sub'ektlariga bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlar jami hisoblangan bojxona to'lovlar tarkibida 2018 yilda 80,2 %ni, 2019 yilda 77,7 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 55,1 %ni tashkil etdi.

Bugungi kunda tadbirkorlik sub'ektlarining bojxona rasmiylashtiruvni uchun sarflaydigan vaqt va mablag'larini kamaytirish hamda tashqi savdo aylanmasi ortishi asnosida bojxona organlarining mavjud resurslaridan unumli foydalanish maqsadida bojxona ma'murchiligi xalqaro standartlar talablari hamda rivojlangan mamlakatlar tajribalari asosida kundan kunga takomillashtirib borilmoqda. Xususan, ayrim tovarlar yashil va sariq yo'laklar orqali bojxona rasmiylashtiruvni soddalashtirilgan tartibda amalga oshirilmoqda. Bu o'z navbatida tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazoratini yanada samarali tashkil etishni taqozo etadi. Oxirgi 3 yilda qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining miqdori 29 foizga ortganligi ushbu fikrimizni tasdiqlaydi (3-rasm)

Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining miqdori 2021 yilda avvalgi yilga nisbatan 6 foizga kamaygan bo'lsa, 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 35 foizga ortganligini ko'rshimiz mumkin. Shu bilan birga, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining kelib chiqish sabablari tahlil qilinganida, asosan imtiyozlarning noto'g'ri qo'llanilishi (38-45 foiz) va import tovarlarining bojxona qiymati noto'g'ri belgilanishi (25-42 foiz) yo'nalishlari salmoqli bo'lganligini ko'rshimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Bojxona organarida 2018-2022 yillarda qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining kelib chiqish sabablari tarkibi,(foizda)

T/r	Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlar(yo'nalishlar bo'yicha)	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y
1	Imtiyozlar noto'g'ri qo'llanilishi bo'yicha	62,6	56,7	63,3	45,4	38,7
2	Bojxona qiymati noto'g'ri qo'llanilishi bo'yicha	6,5	11,4	16,4	25,0	42,1
3	TIF TN kodini noto'g'ri qo'llash bo'yicha	14,5	20,2	5,2	8,0	7,2
4	Kelib chiqish sertifikati noto'g'ri belgilanganligi bo'yicha	3,4	5,4	7,6	15,5	4,8
5	Boshqa holatlар bo'yicha	13,0	6,3	7,5	6,0	7,2
Jami		100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Yuqorida tahlillar shuni ko'rsatib turibdiki, tadbirkorlar tomonidan eng ko'p bojxona to'lovlaridan qochish holatlari bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlardan maqsadsiz foydalanish va bojxona qiymatining noto'g'ri belgilanishi yo'nalishida yuzaga kelmoqda. Demak, ushbu yo'nalishlarda doimiy tahlil va tadqiqotlarni olib borish hamda yangi inovatsion g'oyalarni ishlab chiqib, amaliyatga joriy qilib borish lozim.

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, hisoblangan kamomadlarda eng yuqori qiymatni bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlarning noto'g'ri qo'llanilishi tashkil etmoqda. Bojxona organlari tomonidan olib borilgan monitoring natijalariga ko'ra birgina bojxona to'lovlaridan bojxona imtiyozlarining noto'g'ri qo'llanilganligi bo'yicha 2018-yilda 35.2mlrd so'm, 2019-yilda 46.6mlrd so'm, 2020-yil 107.5mlrd va 2021-yil 72.6mlrd so'mlik qo'shimcha bojxona to'lovleri hisoblanganligi, bojxona auditida bu yo'nalish qanchalik dolzARB ekanligidan dalolat beradi.

Respublika miqyosida o'tkazilgan bojxona auditlarini tahlil qiladigan bo'lساk, "Bojxona audit" boshqarmasi tomonidan "Bojxona audit" AAT doirasida 14 ta audit mezonlari orqali bojxona auditidan o'tkaziladigan vakolatli shaxslar avtomatlashdirilgan ravishda tanlab olinmoqda. Shundan, 2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra 120 ta TIF ishtirokchilariga nisbatan kameral bojxona audit o'tkazilgan bo'lib, shulardan 101 tasi ya'ni 84,2% ijobiy, 19 ta ya'ni 15,8% salbiy deb baholangan.

Olib kirilgan tovarlarning faktura qiymati 428,3 mln dollarni tashkil etib, ushbu tovarlarga nisbatan 695,3 mlrd so'm (90.9 mln dollar) bojxona to'lovleri to'langan va 351,6 mlrd so'm (4.8 mln dollar) bojxona to'lovlaridan imtiyoz qo'llanilgan.

2023-yilning birinchi choragida o'tkazilgan bojxona audit natijasida jami 10 mlrd 312 mln so'm qo'shimcha bojxona to'lovleri aniqlanib, shundan 273,9 mln so'm undirib olindi. Mazkur qo'shimcha bojxona to'lovleri quyidagi yo'nalishlarda:

- ❖ Bojxona imtiyozlari 8,8 mlrd so'm
- ❖ Bojxona qiymati 267,9 mln so'm
- ❖ TIF TN kodi 1,1 mlrd so'm
- ❖ Tarif preferensiyalari 5,2 mln so'm

Bojxona audit va "ko'k yo'lak" orqali jami 20,9 mlrd so'm qo'shimcha bojxona to'lovleri hisoblangan. Shulardan eng yuqori ko'rsatkich Navoi viloyatiga to'g'ri kelib 14mlrd.so'm, eng past ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida 550 ming so'mni tashkil etgan.

Xorijiy davlatlardan olingan 31 ta javob xatlari bo'yicha jami 5,52 mlrd so'm (2022-yilda 8,04 mlrd so'm) qo'shimcha bojxona to'lovleri hisoblandi.

Xalqaro so'rovnomalar yo'nalishida 2023-yil yanvar-mart oylarida Bojxona audit boshqarmasi tomonidan jami 89 ta (2022-yilda 25 ta) xalqaro so'rovnomalar yuborildi. Bojxona audit bojxona nazoratining boshqa shakllaridan asosan u bojxona rasmiylashtiruvidan so'ng o'tkazilishi bilan farqlanadi. Shuning uchun o'tkazilgan bojxona auditining natijalari u yoki bu turdag'i javobgarlikni keltirib chiqaradi. Ayniqsa u davlat budgetiga undirilmay qolgan bojxona to'lovleri aniqlangan vaqtida yanada jiddiylashadi. Shunday ekan, bojxona to'lovleri qo'shimcha hisoblanishi bilan bog'liq har qanday qarorlar chuqur o'rganishlardan so'ng qabul qilinishi lozim.

Bojxona to'lovleri bo'yicha imtiyozlar to'g'ri qo'llanilganligi va undan maqsadli foydalanganlikni tekshirishdan qo'yilgan asosiy vazifalar:

- Bojxona to'lovlaridan beriladigan tarif imtiyozlari va preferensiyalaridan bojxona to'lovlaridan qochish vositasi sifatida foydalanish oqibatida suistemolliklarga yo'l qo'yilishining oldini olish;
- Xo'jalik yurituvchi subyektlarga bojxona to'lovlaridan imtiyozlar taqdim etilishining shaffof mexanizmlarini yaratish;
- Ularni taqdim etishdan ko'zlangan maqsadlarga erishilganligini baholash va ustidan tizimli monitoring o'rnatish;
- Muddatsiz imtiyozlar berish holatlarini bartaraf etish, shuningdek muddatlari tugagan imtiyozlardan foydalanib kelayotgan xo'jalik subyektlarini aniqlash va buning oqibatida davlat byudjetiga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash;
- Bojxona to'lovlaridan berilgan imiyozlardan belgilangan maqsadlarda foydalilanayotganligiga aniqlik kirish;
- Tarif imtiyozlari va preferensiyalarini taqdim etish talablari va shartlariga to'liq rioya etilgan yoki etilmaganligini aniqlash;

Yuqorida keltirilgan maqsadlar o'z navbatida ushbu yo'nalihsining iqtisodiy ahamiyatini yaqqol namoyon qiladi.

XULOSA

Bojxona organlari tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan birga davlatning iqtisodiy manfaatlari va tadbirkorlarning belgilangan qonunchilik talablariga rioya etishlarini ham ta'minlashlari lozim. Bu esa bojxona to'lovlarining to'g'ri va to'liq undirilganligi, hamda bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlarning qonun-hujjatlariga muvofiqligi va tadbirkorlar tomonidan imtiyoz asosida olib kirilgan tovarlardan foydalanish bo'yicha cheklowlarga amal qilinayotganligini nazorat qilish bilan bevosita bog'liq bo'lib hisoblanadi. Shu sababli, bojxona organlarining bu boradagi faoliyatini yanada samarali tashkil qilish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

-mamlakatimiz bojxona tizimida bojxona auditni sohasi yangi bojxona nazorati shakli hisoblanib, unda har bir yo'nalihsing bo'yicha uslubiy qo'llanma yaratilmagan va bu audit o'tkazishda ma'lum bir muammolarni keltirib chiqarmoqda, shu sababli bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlarning to'g'ri qo'llanilganligi va ularidan maqsadli foydalanganlikni tekshirish metodikasini ishlab chiqish;

-kameral bojxona auditida tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin qo'llanilgan maqsadli imtiyozlarni ularidan belgilangan cheklowlar asosida foydalilanayotganli yoki yo'qligini tekshirish imkoniyati yo'qligini hisobga olgan holda, yirik miqdorda imtiyozli tovarlar olib kirgan TIF subyektlarining faoliyatini sayyor bojxona auditni shaklida amalga oshirish, bu bojxona xodimiga xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lumotlar bazasiga kirish va keng qamrovli o'rganib chiqish, hamda tovarlar harakatini kuzatish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvardagi O'RQ-400-sonli "O'zbekiston Respublikasining bojxona kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonuni bilan tasdiqlangan;
2. O'zb. Res. Prezidentining 05.10.2016-yildagi " Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 4848-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3039311>
3. 101-сон 25.02.2021. Bojxona auditini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida <https://lex.uz/docs/-5313465>
4. K.A. Tarankova "Rossiyaga import qilinadigan imtiyozli tovarlarni nazorat qilish mexanizmlari"
5. Savchenko A.G, Lavrikova N.YU "Davlat tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish tizimida bojxona imtiyozlari"
https://www.elibrary.ru/download/elibrary_43100616_55531136.pdf
6. Лунева Е.П. Методические и организационные основы таможенного аудита экспортно-импортных операций участников внешнеэкономической деятельности: Монография / Под общей редакцией докт. экон. наук, профессора Л.А. Поповой. — М.:
7. РИО РТА, 2003.-с.7 Сереброва М. Нужно строить мосты, а не стены URL: <https://ataik.ru/news/mosti-tamogenniy-audit> (дата обращения: 03.11.2019)
8. Берзан А. А. Таможенный аудит в системе государственного контроля // Вестник транспорта. — 2006. — № 6. — С. 43
9. Выбор объектов таможенного аудита с использованием системы анализа и управления рисками: Пособие / Кудрявцев О. Е., Соловьев В. В., Соловьева И.В. — Ростов-н/Д: РИО Ростовского филиала РТА, 2005. – С.97